Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320708

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Numerous methods, including machine learning, statistical analysis, economic analysis, and optimization models, can be used to examine how the transportation system affects the national economy. A comprehensive process that takes into account both macroeconomic data and more specialized elements like logistics and infrastructure efficiency is required to assess how the transportation system impacts the economy.

Research techniques

Analyzing statistical data

The economic impact of the transportation system is assessed using statistical data analysis, which includes:

- collecting and evaluating data on the state of the transportation infrastructure, such as the length of roads, the density of railroads, the volume of air and sea traffic, and the volume of freight and passenger traffic.

- Comparing data from transportation networks with macroeconomic indicators.

Important Results:

1. New technologies and digitization. Transparency, efficiency, and safety in transportation operations are enhanced by the introduction of digital solutions like cargo tracking systems, automated customs processes, and platforms that integrate various logistics chain actors. Future development will be aided by the introduction of cutting-edge technologies like smart roads and unmanned vehicles.

2. The evolution of relations between nations. Uzbekistan is an active participant in regional and international transportation projects, including the Silk Road and the Trans-Caspian International Transport Route. By doing this, the nation's standing as a major transportation hub is strengthened, foreign trade volume rises, and access to global markets is increased.

3. Sustainability of the environment. Uzbekistan is starting to consider environmental factors when creating transportation solutions in response to global environmental challenges. Examples of these include lowering carbon emissions in the transportation sector and utilizing eco-friendly technologies.

List of references

1. The World Bank: World Development Indicators. http://data.worldbank.org/indicator

2. Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan from April 19, 2019 № 336 “On approval of the Regulations on the Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan” 19.04.2019//electronic resource//. https://lex.uz/uz/docs/-4300863

3. Porter E.Michael "The Five Competitive Forces That Shape Strategy." Special Issue on HBS Centennial. Harvard Business Review 86, no. 1 (January 2008): 78–93.

4. Perlin H. The Coming Digital Age Journal of Transportation Economics, 24(2), 25-45.

MONETAR SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Sattorkulov O.T.
dotsent, i.f.n. GulDU
obidkul_2011@mail.ru

Annotatsiya Iqtisodiyotda bozor munosabatlari qaror topayotgan hamda mulkchilikning turli shakllariga mansub korxonalar, jumladan, xususiy mulkdorlar sinfi

Published: 23.12.2024

Cite this article: Sattorkulov O.T. (2024). Monetar siyosatni takomillashtirish orqali tijorat banklari likvidliligini ta’minlash yo‘llari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320708

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

paydo bo‘layotgan sharoitda investitsiyalarni kreditlash muammolari tijorat banki uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy va tarmoq tarkibini iqtisodiy siyosat manfaatlari yo‘lida tartibga solish maqsadida investitsion jarayonlarni moliyalashning bozor mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ana shu keng miqyosli vazifalarni hal etish tijorat banklari o‘zlarining investitsion portfellarini oqilona tashkil etish va ularni samarali boshqarish orqali o‘z mablag‘larini yanada ko‘paytirish hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashning noan’anaviy manbalarini izlab topish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy izlanishlarni olib borishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: kredit riski, fixed rate full allotment, bank kredit portfeli, Markaziy bank foiz koridori, likvidlikni boshqarish strategiyasi .

Kirish

Markaziy bank pul-kredit siyosatining instrumentlaridan foydalanish amaliyoti takomillashmagan mamlakatlarda, xususan, ko‘pchilik o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida majburiy zahira siyosatidan Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri sifatida foydalanadi. Buning boisi shundaki, birinchidan, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarining ko‘pchiligida moliya bozorlari rivojlanmagan bo‘lib, bu xolat markaziy banklarning ochik bozor siyosatini, qayta moliyalash siyosati va valyuta siyosatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi; ikkinchidan, majburiy zahira siyosati muomaladagi pul massasiga bevosita va tez ta’sir qilish xususiyatiga ega; uchinchidan, majburiy zahira talablariga tijorat banklari tomonidan rioya etilayotganligi ustidan nazorat qilish oson. Buning sababi shundaki, Markaziy bank tijorat banklarining balans ma’lumotlarini doimiy tarzda olib turish amaliyotiga ega. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bankning tijorat banklarini litsenziyalash va ular faoliyatini tartibga solish bilan shug‘ullanadigan departamenta xodimlari tijorat banklarining balans ma’lumotlarini doimiy va tezkor tarzda olishadi va ushbu ma’lumotlar asosida tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishadi.

Shunisi harakterliki, majburiy zahira stavkalarini depozitlarning summasi va muddatiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirish zahira talabnomalari miqdorini hisoblash va uning tug‘ri hisoblanayotganligi ustidan Markaziy bank nazoratini amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Ammo kiyinchilikdan kochib, zahira stavkalarini tabaqalashtirmaslik majburiy zahira siyosatidan foydalanish amaliyotini takomillashtirish imkonini bermaydi. Majburiy zahira siyosati pul bazasiga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Pul bazasi esa, Markaziy bankning hatti-harakatini tavsiflaydi. Kredit multiplikatori esa, bank zahiralarini va aholining o‘z ko‘yilmalariga munosabatini tavsiflaydi. Yuzaki qaraganda pul massasi, pul bazasi va kredit multiplikatori o‘rtasidagi munosabat pul taklifini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar to‘g‘risida xech qanday qimmatli ma’lumot bermaydigandek tuyuladi.

Pul bozoriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan omillarga quyidagilar kiradi: Markaziy bankning valyuta intervensiyasi, banklarning majburiy zahiralarini o‘zgartirish. Markaziy bank valyuta intervensiyasini amalga oshirganda milliy valyutadagi ichki netto-aktivlar va xorijiy valyutadagi tashqi nettoaktivlarning miqdori sezilarli darajada o‘zgaradi. Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan belgilagan majburiy zahira talabnomalarini o‘zgartirsa, bu xolat tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini qisqartirish hisobiga kredit emissiyasi hajmiga bevosita ta’sir qiladi. Monetaristlarning fikriga ko‘ra, “yuksak quvvat”ga ega bo‘lgan pullarning o‘zgarishi Markaziy bank siyosatining natijasidir, qolgan ikkala omilning o‘zgarishi esa, tijorat banklari va bank mijozlarining hatti-harakatlaridagi o‘zgarishini anglatadi.

Aynan Markaziy bankning siyosati muomaladagi pullarning mikdoriga xal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi va binobarin, birinchi omil asosiydir, deb hisoblaydilar. Bunda banklarning va ular mijozlarining hatti-harakatini aks ettiruvchi munosabatlar nisbatan barqarordir. Pul massasi esa “yuksak quvvat”li pullarga munosib ravishda o‘zgarib turadi, degan fikrga asoslanadi. “Yuksak quvvat”li pullarning o‘zgarishi esa, Markaziy bank tomonidan ochiq bozor siyosati orqali tartibga solib turiladi. Yuzaki qaraganda pul massasi, pul bazasi va kredit multiplikatori o‘rtasidagi munosabat pul taklifini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar to‘g‘risida xech qanday qimmatli ma’lumot bermaydigandek tuyuladi.

Adabiyotlar sharhi

AQShlik, yaponiyalik va evropalik iqtisodchi olimlar tomonidan nashr etilgan

darsliklar, chop etilgan ilmiy maqolalarda “monetar siyosat” (monetary policy) tushunchasidan foydalaniladi. Masalan, taniqli iqtisodchi olim, AQSh FZT Prezidenti B.Bernanke[1] va A. Bernsda[2] kuzatish mumkin.

Taniqli iqtisodchi olim N. Menkyu AQSh FZTning monetar siyosatini iqtisodiyotda muomalada bo‘lgan pullar ustidan nazorat qilishni amalga oshirish sifatida talqin qilgan.[3]. Jumladan, E.Dolan, K.Kempbell va R.Kempbellar monetar siyosatga shunday ta’rif berganlar: “Monetar siyosat – muomaladagi pul miqdoriga ta’sir qiluvchi hukumat siyosatidir”.[4]

Monetar siyosatni takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari Sh.Shodmonov, M.Yaxshiyeva, R.Yusupov, A.Vahobov, N.Jumayev , A.Vahabov, O.Olimjonov, O.Namozov, R.Shomurodov, T.Boboqulov, F.Mullajonov [5], Sh.Abdullayevalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va muhokama

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini uzoq muddatli kreditlash moliyaviy resurslarning eng muhim manbai, iqtisodiyotning progressiv va innovatsion rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Ma'lumki, odatda kreditlash jarayoni natijasida bank foydasining 80 foizdan ortiq qismi shakllanadi. Har qanday ko‘zlangan foyda esa risk bilan yonma yon yuradi. Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihaning amalga oshishga bir qancha risk turlari to‘siq bo‘lishi mumkin. Ularning asosiylaridan biri bu kreditning qaytmaslik havfi - kredit riski bo‘lib, kredit riskini boshqarishni samarali yo‘llarini topish bank oldidagi doimiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarida investitsion loyihalarni kreditlash jarayonida kredit riskini boshqarish birmuncha murakkab jarayon bo‘lib, u investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish orqali investitsion qaror qabul qilishni taqozo etadi. Bank faoliyatida daromad va risk doimo yonma-yon va ular o‘rtasidagi muvozanatni toppish zamonaviy bank ishining muhim muammolaridan biridir. Tijorat banklari tomonidan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldindan baholay olishi, samarali boshqarishi va unga qarshi zarur choralar ko‘rishi bankka etishi mumkin bo‘lgan moddiy-ma'naviy zararlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz tijorat banklarida an'anaviy kreditlash yo‘nalishlaridan tashqari uzoq muddatli investitsion kreditlash amaliyoti ham tobora rivojlanib bormoqda. Korxonalarning asosiy fondiga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlar investitsion kreditlar deb ham ataladi. Uzoq muddatli kreditlarning zarurligi korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga mablag‘ yetarli emasligidan kelib chiqadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarishni tashkil etishda kredit resurslarini jalb qilish dolzarb masaladir, chunki bularni hammasini amalga oshirish yirik moliyaviy imkoniyatlarni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarida investitsion moliyalashtirish bank faoliyatining asosini tashkil etib, olinadigan bank foydasining 50 foizdan ortig‘i aynan shu yo‘nalish orqali shakllanadi. Bunda banklarning fond bozoridagi faoliyatini ham alohida ta'kidlab o‘tish joiz. Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanib borishi natijasida tijorat banklarining investitsion faolligi ham yildan yilga o‘sib bormoqda. Hukumat tomonidan olib borilayotgan oqilona investitsion siyosatda tijorat banklarining ishtiroki qo‘llab quvvatlanmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy islohotlar natijasida YAIM hajmi muntazam o‘sishi kuzatilmoqda.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda kredit riskini boshqarishning odatiy kreditlash jarayonidagi kredit riskini boshqarishdan farqli va murakkab joyi shundaki, unda tijorat banki investitsion loyihaning o‘zini o‘zi qoplashi, zararsizlik nuqtasi, foydalilik normasi, biznes rejaning puhta ishlab chiqilganligi, kelgusi pul oqimlarining kredit to‘lovlariga muvofiqligi kabi bir qancha investitsiya loyihasining samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganib, loyihani kompleks ekspertizadan o‘tkazishi talab etiladi. Buning uchun bankda alohida ekspert mutaxasislar bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Investitsion kreditlar bevosita bank kredit portfelini shakllantirishidan kelib chiqadigan bo‘lsak, tijorat banki kredit portfeli kredit riskini oqilona boshqarish bilan investitsion loyihalarda yuzaga keladigan kredit riskini kamaytirish mumkin bo‘ladi[6].

Kredit riskini oqilona boshqarishning dolzarbligi shundaki, uning natijasida nafaqat berilgan ssudalarning o‘z vaqtida qaytmasligi, balki pirovard natijada bank muammoli aktivlarining ortishi, likvidliligining pasayishi va yangi mijozlarga xizmat ko‘rsatishda resurs muammolariga duch kelish havfi ortadi. Bugungi kunda jahon bo‘ylab avj olgan koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlari barcha davlatlarda bo‘lganidek, yurtimiz iqtisodiyotiga ham o‘zining salbiy ta'sirini ko‘rsatmay qolmadi. Agar mamlakatimiz tijorat banklarida mavjud muammoli kreditlar holatini taxlil qiladigan bo‘lsak, bunga yaqqol amin bo‘lishimiz mumkin. Pandemiya ta'sirida biznes yuritishning yomonlashuvi, ishlab chiqarish va savdo hajmlarining kamayishi bevosita bankdan kredit olgan mijozlarning bank oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilmasligiga olib kelmoqda.

Kreditlarning hajmi va soni oshgan sayin kreditning qaytmaslik xatari ham osha borishi bank amaliyotida ma'lum hodisadir. Odatda investitsion kredit riskini yuzaga kelishiga quyidagi hollar sabab bo‘ladi:

a) turli xil makro va mikro iqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik va me'yorlardagi o‘zgarishlar;

b) qarz oluvchi faoliyatida bo‘ladigan iqtisodiy va siyosiy muhitdagi o‘zgarishlar, salbiy hollar tufayli olingan kreditni to‘lashga mos pul oqimini tashkil qila olmaslik;

v) investitsion kreditni ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo‘yicha to‘liq ishonchning yo‘qligi;

g) yuqori bilimga ega bo‘lgan bank xodimlari va mijozlarning yetishmasligi;

d) qarz oluvchi sub'ektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro‘sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o‘zgarishlar va boshqalar.

Tijorat banklarida investitsion kreditlash bo‘yicha kredit risklarini boshqarishni odatda quyidagi 2 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Yakka tartibdagi loyiha darajasida kredit riskini boshqarish;

2. Bank kredit portfeli darajasida kredit riskini boshqarish. Yakka tartibdagi loyiha darajasida kredit riskini boshqarishning bir qancha usullari mavjud bo‘lib, kreditlash jarayonini tashkil etuvchi bosqichlarning har birida riskni baholash va uni kamaytirish ishlarini o‘z ichiga oladi hamda qat’iy monitoringni talab etadi.

Tijorat banklarining likvidli aktivlarining miqdorini depozitlarning nobarqaror qismiga nisbatan emas, balki joriy depozitlar va jamg‘arma depozitlariga nisbatan belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan shu depozitlarning nobarqarorlik darajasi yuqori bo‘lib, tijorat banklarida likvidlilik riskini doimiy tarzda yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, depozitlarning barqaror qismining jami depozitlarning 75 foizi miqdorida shakllanishi rivojlangan xorijiy davlatlarning amaliyotiga xos bo‘lgan holat hisoblaandi. Rivojlanyotgan davlatlarda esa, moliya bozorlari rivojlanmaganligi, Markaziy bankning monetar siyosatida noaniqliklarning mavjudligi va boshqa omillar xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Bu holatlar, pirovard natijada, xo‘jalik sub’ektlarining pul oqimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida tijorat banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlar va jamg‘arma depozitlari qoldiqlarining nobarqarorligi kuchayadi. Shu sababli, fikrimizcha, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida talab qilib olinadigan depozitlar, yuridik shaxslarning jamg‘arma depozitlarining qoldiqlariga nisbatan tijorat banklarining likvidli aktivlarini kamida 50 foiz miqdorida saqlab turishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bu borada 2022 yilda va 2023-2024 yillar davomida bank tizimi likvidligini tartibga solish samaradorligini oshirish, pul bozorida banklar ishtirokini yanada faollashtirish, davlat qimmatli qog‘ozlari bilan ikkilamchi savdolarni kengaytirish va shu orqali transmission mexanizmning foiz kanalini rivojlantirish borasida qator choralarni amalga oshirildi:

1. Likvidlik tahlili va prognozini kuchaytirish. Bugungi kunda bank tizimi likvidligini va muomaladagi naqd pullar hajmini prognoz qilishda ekonometrik modellarni qo‘llash va ulardan keng foydalanishni joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. 2022 yildan boshlab likvidlik prognozida to‘liq modellar natijalariga asoslanishga o‘tildi.

Shuningdek, hukumat operatsiyalarining bank tizimi likvidligiga ta’sirini o‘rganish, unda mavjud mavsumiylikni hisobga olgan holda kelgusi davr uchun prognozini amalga oshirish hamda likvidlik prognozidan qisqa muddatli pul-kredit siyosati instrumentlari hajmi va muddatini aniqlashda foydalanish imkoniyatlari kengaytirib boriladi. Likvidlik prognozida Moliya vazirligi bilan hukumat operatsiyalari bo‘yicha, tijorat banklari bilan naqd pul va valyutaga talablari bo‘yicha, O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va pensiya jamg‘armalari bilan ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘yicha doimiy ma’lumot almashish tizimi takomillashtirilib, ma’lumotlar sifati va aniqligi oshirib boriladi.

2. Likvidlikni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish. Operatsion mexanizmni takomillashtirishda amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlarning to‘g‘ri ketma-ketligini tanlash hamda ular bo‘yicha shaffof kommunikatsiyani ta’minlash maqsadida kelgusi yillarda Markaziy bankning o‘rta muddatli “Likvidlikni boshqarish strategiyasi”ni ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Mazkur strategiyaning inflyatsion targetlashga o‘tgan boshqa davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda XMI ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan choralarning tizimliligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. “Likvidlikni boshqarish strategiyasi” Yo‘l xaritasi ko‘rinishida ishlab chiqiladi hamda pul-kredit siyosati bo‘yicha qarorlar qabul qilishda, likvidlikni samarali tartibga solinishini ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish bilan bir qatorda likvidlikning omillar kesimidagi o‘rta muddatli (kamida 3 yillik) prognozi ham ishlab chiqiladi.

3.Pul-kredit siyosati operatsiyalarini o‘tkazish mexanizmlarini yanada takomillashtirish. Ushbu yo‘nalishda Markaziy bankning qisqa muddatli pul-kredit operatsiyalarining pul bozoridagi narxni belgilashdagi rolini oshirish, pul-kredit sohasidagi holat va sharoitlar bo‘yicha to‘g‘ri signal berish va shu orqali asosiy stavka

bo‘yicha qarorlarni iqtisodiyotdagi foiz stavkalariga o‘tkazish samaradorligini oshirishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Xususan, asosiy pul-kredit operatsiyalarini auksionlardan to‘liq qoplanadigan o‘zgarmas stavkali (“fixed rate full allotment”) operatsiyalarga o‘tkazish rejalashtirilgan bo‘lib, bunda joriy depozit auksionlari o‘rniga cheklanmagan hajmda amalga oshiriladigan muddati 14 kungacha bo‘lgan depozit operatsiyalariga o‘tiladi. Ushbu operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasiga teng bo‘ladi. Auksionlarning o‘zgarmas stavkali operatsiyalarga o‘tkazilishi pul bozoridagi foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan tebranuvchanligining pasayishiga, asosiy stavka ta’sirining va transmission mexanizm samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Markaziy bank obligatsiyalari bo‘yicha yuqori chegarani bekor qilish natijadorligi o‘rganib chiqilmoqda. Bugungi kunda Markaziy bank obligatsiyalarining muomalaga chiqarilishi bo‘yicha amalga oshiriladigan auksionlarda daromadlilikning yuqori chegarasi sifatida asosiy stavka belgilangan. Bank tizimi likvidligini tartibga solishda Markaziy bank instrumentlari bo‘yicha foiz stavkalari – qisqaroq muddatli operatsiyalar bo‘yicha (overnayt operatsiyalar va auksionlar) narxni belgilovchi (“price maker”) va uzoqroq muddatli operatsiyalar (obligatsiyalar) bo‘yicha narxni qabul qiluvchi (“price taker”) vazifasini bajarishi lozimligi sababli ham ushbu vaqtincha joriy etilgan yuqori chegaraning olib tashlanishi nazarda tutilmoqda.

4. Pul-kredit siyosati operatsion maqsadini takomillashtirish. Pul-kredit siyosatining operatsion maqsadini pul bozoridagi overnayt depozit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarni Markaziy bank asosiy stavkasiga yaqin, foiz koridori doirasida shakllanishini ta’minlash etib o‘zgartirish rejalashtirilmoqda. Inflyatsion targetlash rejimiga o‘tgan aksariyat davlatlarda operatsion maqsad sifatida banklararo pul bozoridagi 1 kunlik (overnayt) operatsiyalar bo‘yicha foiz stavkalar target bazasi sifatida olingan. Mamlakatimizda operatsion target belgilangan vaqtda banklararo pul bozoridagi amaliyotlar soni kam bo‘lganligi hamda banklar faolligining pastligi sababli ham maqsad sifatida pul bozoridagi muddati 14 kungacha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining asosiy stavkaga yaqin foiz koridori doirasida shakllanishini ta’minlash vazifasi belgilangan edi. Bugungi kunda, pul bozoridagi bitimlar sonining, shu jumladan, overnayt operatsiyalar soni va hajmining ortib borayotganligi natijasida operatsion maqsad bazasini 14 kungacha bo‘lgan depozitlardan 1 kunlik overnayt depozitlarga o‘zgartirish uchun sharoitlar yaratildi. Shu bilan birgalikda, pul bozori indekslarini takomillashtirish ham ko‘zda tutilmoqda. Markaziy bank 2023 yil yanvar oyida pul bozoridagi foiz stavkalari bo‘yicha “UZONIA” va “UZWIA” indekslarini joriy etgan edi. Kapital va moliya bozorlari rivojlanmagan bugungi kunda ushbu indekslar iqtisodiyotda moliyaviy instrumentlar narxini baholash uchun asosiy “benchmark” vazifasini o‘tamoqda. Indekslarga bo‘lgan ishonchni oshirish, birinchi navbatda, ularning hisoblash metodologiyasi shaffofligini ta’minlash, indekslarning keskin tebranishlarini oldini olish maqsadida mukammal operatsion mexanizmni tashkil etish va pul bozoridagi operatsiyalar sonining ortishi uchun sharoit yaratish bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi ishlar pul-kredit siyosatining kelgusi yillarga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

5. Banklararo pul bozori faolligini oshirish. Bugungi kunda faqatgina garovsiz (“unsecured”) banklararo pul bozori faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, bank tizimida umumiy likvidlik profitsitining mavjudligi va ushbu profitsitning deyarli barcha banklarga taqsimlanganligi sababli ham so‘nggi oylarda pul bozori faolligining biroz susayganligi kuzatilmoqda. Ta’kidlash joizki, banklarning likvidlikni o‘zaro qayta taqsimlashdagi faolligini rag‘batlantirish va pul bozoridagi amaliyotlar jozibadorligini oshirish maqsadida Markaziy bank foiz koridori kengaytirildi. O‘rta muddatli istiqbolda

banklar bilan kommunikatsiya munosabatlarini rivojlantirish va ular uchun likvidlikni samarali boshqarish bo‘yicha seminarlar sonini oshirish, XMI ekspertlarini taklif etgan holda bank mutaxassislarining malakasini oshirish, bank tizimini tranformatsiya qilish jarayonlarini tezlashtirish, ularning pul bozoridagi faolligini rag‘batlantirish rejalashtirilgan.

Xulosa va takliflar

Investitsiya siyosatini ishlab chiqish va investitsiya portfeli tuzilmasini aniqlash yilida banklar avvalambor likvidlik, daromadlilik va risk darajasiga e’tibor beradi. Banklarning qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan maqsadi - foizlar olish, kapitalni saqlab qolish va qimmatli qog‘ozlar kursi qiymatining o‘sib borishi asosida sarmoyaning ortib borishini ta’minlashdan iboratdir. Banklarning bu boradagi strategiyasi bank qonunchiligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya kabi qator mamlakatlar bank qonunchiligida bank portfelida mavjud bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar kurs qiymatining o‘sishi hisobiga vujudga keladigan yashirin zahiralarning shakllantirilishi taqiqlanadi. Bu davlatlarda banklar o‘z balanslarida o‘z aktivlarining qiymatini, ularni qayta baholashni hisobga olgan holda ko‘rsatishlari shart. Boshqa mamlakatlarda, masalan, Yaponiya, AQShda aktivlar real yoki nominal qiymati bo‘yicha balanslarda aks ettirilishi sababli, yashirin zahiralar katta miqdorga yetishi mumkin, bu esa, bankni shunday investitsiyalarni ko‘paytirib borishga da’vat etadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimiz banklarining investitsiyalash portfeli obyekti bo‘lib korporativ qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, davlat qisqa muddatli qog‘ozlari tashkil etmoqda.

Investitsiyalash jarayonida mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan «shtanga» usulining keng qo‘llanilib kelinayotganligi tijorat banklarining barqaror va qat’iy daromad olinishini ta’minlamoqda. Ammo, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari faoliyatini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirish borasida tijorat banklari tomonidan yuritilinayotgan investitsion faoliyat asosan takomillashgan tarmoqlar faolini tobora rivojlantirish hisobiga barqaror tendensiyani aks ettirmoqda. Bu o‘z navbatida bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlashga qaratilingan investitsion faoliyat strategiyasini shakllantirishni talab etadi. O‘z navbatida mazkur jarayonda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonida tijorat banklari tomonidan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni imtiyozli investitsiyalar dasturi asosida maqsadli moliyalashtirish;
- xorijiy banklarning investitsiya siyosatini tahlil qilish asosida tijorat banklari investitsion faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitini shakllantirish jarayonida tizimli investitsion faoliyat yo‘nalishlarini amaliyotga joriy etish vazifalarni amalga oshirish va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. Bernanke B. Constrained Discretion and Monetary Policy. Remarks before the Money Marketeers of New York. N.Y.: University, 2003. February 3.
2. Burns A. Rejections of an Economic Policymaker: Speeches and Congressional Statements: 1969-1978. Washington: American Enterprises Institute,1978. – P. 50.

3. Mankiw N.G. Principles of macroeconomics. 4th ed. Per. from English. - St. Petersburg: Peter, 2009. - p. 297.

4. Dolan E.J. Money, banking and monetary policy./Trans. from English. V. Lukashevich and Dr. Under total red V. Lukashevich. - L., 1991. - 448 p.

5. F.Mullajonov “O‘zbekiston bank tizimi barqaror rivojlanish , xalqaro mezonlarga erishish yo‘lida ” j. Bozor, pul va kredi. -2013 y. 1-soni .B. 7.

Abdullayevich, Safarov Giyosiddin, and Samandar Raimberdiyev Sherzod Oglu. "The role of capitalization in the expansion of the participation of commercial banks in financing investment projects." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.11 (2021): 108-114. https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULL-PDF/ACADEMICIA-NOVEMBER 2021/11.17,%20Safarov%20Giyosiddin% 20Abdullayevich.pdf

ISHLAB CHIQARISHDA YAROQSIZ MAHSULOTLARNING HISOBI VA SOLIQ OQIBATLARINI O‘RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Chorshanbayev Umrzoq
Guliston davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi o‘qituvchisi
umurzokchorshanbayev@gmail.com
G‘affarova Sarvinoz Muzaffar qizi
Guliston davlat universiteti magistri
Obloqulova Shaxlo
Guliston davlat universiteti " Rakamli iqtisodiyot va innovasiyalar”fakulteti talabasi
obloqulovashaxlo1@gmail.com

Annotatsiya: Ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlar - bu standartlarga yoki belgilangan talablarga javob bermaydigan, shuning uchun iste'mol qilinmaydigan yoki iste'molga yaroqsiz hisoblangan mahsulotlardir. Ushbu mavzu doirasida, yaroqsiz mahsulotlarni hisobga olish jarayoni, ularning ishlab chiqarishdagi sabablarini aniqlash, shuningdek, bu mahsulotlarning kompaniya uchun soliq oqibatlari tahlil qilinadi. Ishlab chiqaruvchilar uchun yaroqsiz mahsulotlarning hisobi, moliyaviy ko‘rsatkichlar va soliq majburiyatlari bilan bog‘liq masalalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Yaroqsiz mahsulotlarning chegaralarini aniqlash va ularni samarali yo‘lga qo‘yish orqali ishlab chiqarish jarayonini va korxona moliyaviy holatini yaxshilash mumkin.

Kalit so‘zlar: Yaroqsiz mahsulotlar,hisobga olish,soliq oqibatlari,ishlab chiqarish jarayoni,moliyaviy ko‘rsatkichlar, iste'mol talablari ,mahsulot sifatini nazorat qilish.

Kirish(introduction): Har qanday ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulotlar kelib chiqadi.. Uni qanday to’g’ri rasmiylashtirish va soliq oqibatlari hamda buxgalteriya hisobida aks ettirish mumkin. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar – bu sifati texnik shartlar va standartlarga to’g’ri kelmaydigan buyumlar, detallar, uzellar va yarim fabrikatlar. Ularni maqsadiga binoan qo’llash mumkin emas yoki nuqsonlarini bartaraf etgandan keyin mumkin. Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar to’g’risida hujjatlarning tasdiqlangan yagona shakllari mavjud emas, shu bois korxona buxgalteriya Hisob siyosatida yaroqsiz mahsulotlar hisobini yuritish tartibini tasdiqlagan holda mustaqil ravishda hujjatlar shakllari va bayonnomalarni ishlab chiqishga haqli.Mahsulotlardagi nuqsonlarni kuzatib borish, qoidaga ko’ra, texnik nazorat bo’limiga